



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ilmiy tadqiqotchi: Nomozova Nozima Sodiq qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, mazmuni va samarali usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlash tushunchasining mohiyati ochib berilib, uni shakllantirishda zamonaviy ta'lim metodlari — savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, interaktiv usullar, grafik organayzerlar hamda refleksiya texnologiyalarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy pedagog-olimlarning ilmiy qarashlari asosida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil, mantiqiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini kengaytirish yo'llari ko'rsatiladi. Maqola natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va ta'lim sohasi tadqiqotchilari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, muammoli ta'lim, refleksiya.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va asosli xulosa chiqarishga o'rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarda tafakkur faoliyatining shakllanishi uchun eng muhim poydevor bo'lib, bu davrda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lgan, savollar berish va atrof-muhitni faol o'rganishga moyil davr hisoblanadi. Bugungi globallashuv va axborot oqimi tezlashgan sharoitda o'quvchilarning har qanday ma'lumotni tanqidiy baholash, uning ishonchliligini



aniqlash va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish boshlang'ich ta'lim mazmunining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayonida faqat tayyor bilim berish emas, balki o'quvchini fikrlashga undaydigan, muammoli vaziyatlar asosida bilim olishga yo'naltiradigan metodlardan foydalanish talab etilmoqda. Shuningdek, mahalliy va xorijiy pedagog-olimlarning ilmiy tadqiqotlari boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligi o'qitish usullari, darsni tashkil etish shakllari hamda o'qituvchining pedagogik yondashuviga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan oqilona foydalanish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'gan bolalarni qamrab olashi. Yosh doirasi kichik bo'lganligi sababli bolalarning eng nozik rivojlanish davriga to'g'ri keladi bu davr. Shuning uchun o'quvchilarni qiynamagan holda ulardagi bilimlarni oshirib shu jumladan, tanqidiy fikrlashlarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda bolalarni jamoalar bilan birlashtirib, ko'plab metodlar va muammolarga to'g'ridan to'g'ri yechim topish orqali amalga oshirish mumkin. Aslini olganda, o'quvchi bilimni tayyor holda yodlab qabul qilmasligi, balki muammoni mustaqil yechish jarayonida bilimga ega bo'lishi kerak. [2:17]

Tanqidiy fikrlash metodlari bolaning mantiqiy tafakkuri, analitik yondashuvi va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Natijada bola yuzaga keladigan muammolarga yuzaki emas, balki chuqur va tizimli yondashadi, muqobil yechimlarni ko'ra oladi va eng maqbul qarorni tanlashga intiladi. Shu o'rinda muammoli vaziyat haqida tushuncha kiritib o'tish lozim: "Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat: Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlar ajratadi. Kichik guruhlar berilgan



muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi. [6:8] Muammoli vaziyat ta'lim jarayonida o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday vaziyatlarda o'quvchi oldida aniq javobi darhol ko'rinmaydigan savol yoki masala paydo bo'ladi va bu holat tanqidiy fikrlashni faollashtiradi.

Tanqidiy fikrlashni tizimli tarzda rivojlantirish ham eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Bunda ko'proq aniq fikrlash, mantiqiy izchillik kabi elementlarga e'tibor qaratiladi va ko'roq kitoblar o'qishni taklif qilish, rolli o'yinlardan foydalanish tavsiya qilinadi.[3:28]. Rolli o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchini real hayotga yaqin vaziyatlarga olib kiradigan, uni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradigan samarali metodlardan biridir. Ular o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini kengaytirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarda tanqidiy fikrlashni kuchaytirishda yana bizga BLOOM taksonomiyasi ham yordam beradi. Bu bilimlarni o'zlashtirish darajalarini bosqichlari bo'lib, o'z ichiga bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash kabi darajalarni kiritadi va bizga eng foydalilari oxirgi uchasi hisoblanadi.[1:52]

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri interaktiv dars o'tish deb ta'kidlanadi. Unga ko'ra bolalar faqat bilimni qabul qilmsdan, uni tahlil qilish solishtirish va baholash jarayonida faol ishtirok etadi. [5:



23] Buning uchun darslar ko'rgazmalarga boy, har bir o'quvchi e'tibor markazida, ko'plab metodlardan, grafik vositalar, diogrammalar va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanilgan bo'lishi lozim. Grafik organazrlarga misollar: "klaster", "Ven diagrammasi", "Aqliy hujum", "T-chiziq jadvali" kabi grafik organayzerlar ma'lumotlarni tartibga solishga, solishtirishga, umumlashtirishga yordam beradi. O'quvchi o'rganayotgan mavzuni vizual tarzda ko'ra oladi va uning fikrlash jarayoni faollashadi. Bundan tashqari o'quvchilar matnlar bilash ishlash uchun "Insert" texnikasidan yoki dars yuzasidan ikki xil qarama-qarshi qarashlar mavjud bo'lsa "Debat" orqali bahs munozara uyushtirib darsni yanada kengroq tushunchalar bilan boyitish mumkin. "SWOT tahlili" kuchli, kuchsiz tomonlar, imkoniyatlarva xavflarni tahlil qilish orqali o'quvchi mavzuga kengroq nazar bilan qarashni o'rganadi.

"Intervyu" - metodi o'quvchilarning bir birlari bilan axborot almashishlariga, ayniqsa jamoaviy ruhni shakllantirishga yordam beradi? Sinf ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh vakili doskaga chiqib, ikkinchi guruh ishtirokchilaridan istalgan biriga savol beradi. To'liq javob berilganidan so'ng, javob bergan ikkinchi guruh vakili boshqa guruh a'zosidan xohlagan biriga o'z savolini beradi. O'yin shu tariqa davom etadi. Zanjir uzilmasligi lozim.[7:3]

"Intervyu" – metodida foydalanish uchun savollar namunasi:

1. Siz o'z Vatanningizni nima uchun sevasiz?
2. Vatan deganda xayolingizga eng birinchi nima yoki kim keladi?
3. "Oila – kichik Vatan". Bu fikrga munosabatingiz.
4. Sizning bu Vatanga qo'shadigan hissangiz ayni damda nimalardan iborat?
5. To'tiyo nima degani?
6. Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" she'ridan nimani tushundingiz?
7. Ona xalq deganda nimani tushunasiz?
8. Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun



Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

Misralaridan nimani tushundingiz?

9. Sizga Vatan suratini chizib ber desa, nimani chizgan bo'lar edingiz?

10. Umr bo'yi Vatan sog'inchi bilan yashash sizningcha, qanday his? Bunday buyuk ajdodlarimizdan kimlarni taniysiz? Bu savollarga o'quvchilar o'z tajribasidan kelib chiqib javoblar beradi. [4:11]

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ota-onaning roli ham katta. Ota-onalar o'quvchining uy sharoitidagi fikrlash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Uyda bola bilan suhbatlashish, savol-javoblar qilish, uni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish tanqidiy fikrlashning asosiy qismidir. Bolaga noto'g'ri fikr bildirganida tanqid qilmasdan, muloyim yo'l bilan muhokama qilish muhim.

Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tanqidiy fikrlashni kengaytirish o'quvchidan faqat bilimlarni yod olishni emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, baholash va amaliy faoliyatda qo'llashni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, interaktiv metodlar, grafik organayzerlar hamda refleksiya usullaridan tizimli foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining pedagogik mahorati, darsni to'g'ri rejalashtirishi va o'quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlarini inobatga olishi ushbu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlashni boshlang'ich sinf o'quvchilarida erta rivojlantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorgarlik ko'rishiga, ularning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishiga hamda jamiyatda mustaqil, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu boisdan boshlang'ich ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan



metod va texnologiyalarni yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloom Benjamin "Taxonomy of Educational Objectives". 1956.
 2. Dewey John "How We Think". 1910.
 3. Elder Linda & Paul Richard "Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning".
 4. Ergashova N. "Ta'limda tanqidiy fikrlash va metodik yondashuvlar". Toshkent: "Book media" nashriyoti 2022
 5. Raxmonova G. "Boshlang'ich sinflarda tafakkur faoliyatini rivojlantirish". Toshkent: "Sharq" nashriyoti 2020
- Internet saytlari:
6. Staff.tilame.uz
 7. Eyis.uz
 8. Ziyonet.uz